

INGLIZ TILIDAGI SHIFOKOR VA BEMOR DIALOGIK MULOQOTINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

1-son O'zbek va xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda shifokor va bemor o'rtasidagi ingliz tilidagi dialogik muloqotning asosiy lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, kommunikativ kompetensiya va tibbiy diskursga oid nazariy qarashlar hamda zamonaviy tadqiqotlar asosida savol-javob, parafrazlash, empatik va pragmatik birliklarning funksional xususiyatlari ochib beriladi. Ushbu xususiyatlarni bo'lajak shifokorlarning ingliz tilidagi dialogik nutq kompetensiyasini rivojlantirishda hisobga olish zarurdir.

Kalit so'zlar: tibbiy ingliz tili, dialogik nutq, shifokor–bemor muloqoti, kommunikativ kompetensiya, tibbiy diskurs, pragmatik kompetensiya.

Kirish. Zamonaviy tibbiy ta'limda chet tilini o'qitishdan ko'zlangan maqsad faqat tibbiy terminlarni o'zlashtirish emas, balki bo'lajak shifokorning real professional vaziyatlarda samarali muloqot qila olish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, hozirgi kunda ingliz tili xalqaro tibbiy va ilmiy kommunikatsiyaning muhim vositasi sifatida qaralayotgan bir sharoitda shifokor - bemor muloqotining lingvistik xususiyatlarini aniqlash dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Kommunikativ kompetensiya tushunchasining rivojlanishi quyidagi olimlarning ilmiy izlanishlariga borib taqaladi: Hymes (1972) kommunikativ kompetensiyani til birliklarini grammatik jihatdan to'g'ri qo'llash bilan cheklamay, ularni muayyan ijtimoiy vaziyatga mos ravishda ishlata olish qobiliyati sifatida talqin qilgan. Canale va Swain (1980) esa grammatik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalarni ajratib ko'rsatgan. Keyinchalik Celce-Murcia, Dörnyei va Thurrell (1995) kommunikativ kompetensiyaning lingvistik, diskursiv, sotsiomadaniy, aksional va strategik komponentlarini taklif qilgan. Salager-Meyer (2014) tibbiy ingliz tilining rivojlanishida tibbiy diskursning yozma va og'zaki shakllarini o'rganish lozimligini ta'kidlagan.

Metodlar. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda lingvistik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil va nazariy umumlashirish metodlaridan foydalanildi. Tahlil uchun kommunikativ kompetensiya va tibbiy diskurs nazariyasining asosiy ishlari, jumladan Hymes (1972), Canale va Swain (1980), Celce-Murcia va hammualliflar (1995), shuningdek, tibbiy maqsadlar uchun ingliz tili bo'yicha Salager-Meyer (2014) tadqiqotlari asos qilib olindi. Stortenbeker va hammualliflari (2020) tibbiy konsultatsiyalarda savol berish, javoblarni aniqlashtirish

va turli nuqtayi nazarlarni muvofiqlashtirish kabi interaktiv jarayonlarning ahamiyatini ko'rsatib bergan tadqiqoti tavsifiy tahlil qilindi.

Natijalar. Tahlil natijalari shifokor - bemor o'rtasidagi ingliz tilidagi dialogik muloqot bir qator o'ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Birinchi xususiyat - muloqotning savol-javobga asoslanganligi. Anamnez yig'ish jarayonida shifokor bemordan simptomlarning davomiyligi, joylashuvi, intensivligi va boshqa xususiyatlari haqida savollar orqali ma'lumot oladi:

How long have you had this pain?

Where exactly does it hurt? Bunday savollar grammatik birlik bo'lish bilan birga, aniq klinik kommunikativ funksiyani bajaradi.

Shifokorning keyingi nutqiy harakati ko'pincha bemorning oldingi javobiga bog'liq bo'ladi. Demak, tibbiy dialog oldindan tayyorlangan alohida gaplar yig'indisi emas, balki ishtirokchilarning o'zaro javoblariga asoslangan dinamik jarayondir. Bunda terminologik aniqlik va bemorga tushunarliklik bir vaqtda ta'minlanishi zarurdir.

Navbatdagi xususiyat- bemor javobini aniqlashtirish zaruriyati. Tibbiy muloqotda noto'g'ri tushunish jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi sababli shifokor ko'pincha bemorning javobini aniqlashtiradi:

Do you mean that the pain becomes worse when you walk?

Could you describe the pain again?

Stortenbeker va hammualliflari (2020) tibbiy konsultatsiyalarda aynan shunday lingvistik vositalar orqali ma'no va klinik ma'lumot bir-biriga uyg'unlashishini ta'kidlaydi.

Yana bir xususiyati suhbat davomida pragmatik va empatik birliklarning qo'llanishidir. *"I understand; I see; Let me explain; Don't worry"* kabi ifodalar shifokorning faqat axborot beruvchi emas, balki bemorning hissiy holatini hisobga oluvchi suhbatdosh ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama va xulosa. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, shifokor-bemor o'rtasidagi ingliz tilidagi dialogik muloqotni o'rgatishda faqat grammatik aniqlik va tibbiy terminologiyaga e'tibor qaratish yetarli emas. Dialogik kompetensiya savol berish, navbatni boshqarish, aniqlashtirish, parafrazlash, empatiyani ifodalash va bemorning kommunikativ ehtiyojlariga moslashish kabi ko'nikmalarni ham qamrab olishi lozim. Tadqiqotda aniqlangan lingvistik xususiyatlar bo'lajak shifokorlarning ingliz tilidagi dialogik nutqini rivojlantirishga qaratilgan muammoli vaziyatlar, klinik keyslar va kommunikativ topshiriqlarni ishlab chiqishda lingvistik mezon sifatida qo'llanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1),

- 1–47. <https://doi.org/10.1093/applin/1.1.1>
2. Celce-Murcia, M., Dörnyei, Z., & Thurrell, S. (1995). Communicative competence: A pedagogically motivated model with content specifications. *Issues in Applied Linguistics*, 6(2), 5–35. <https://doi.org/10.5070/L462005216>
3. Hymes, D. H. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* (pp. 269–293). Penguin.
4. Salager-Meyer, F. (2014). Origin and development of English for Medical Purposes. Part II: Research on spoken medical English. *Medical Writing*, 23(2), 129–131. <https://doi.org/10.1179/2047480614Z.000000000204>
5. Stortenbeker., et al & Olde Hartman, T. (2020). Linguistic and interactional aspects that characterize consultations about medically unexplained symptoms: A systematic review. *Journal of Psychosomatic Research*, 132, 109994. <https://doi.org/10.1016/j.jpsychores.2020.109994>